

KASB-HUNAR MAKTABLARI ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA
VAZIYATGA QARAB O'QITISH STRATEGIYASI

Chintosheva Feruza Olimovna

Toshkent tumani 2-sonli kasb-hunar maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada kasb-hunar maktablari ona tili va adabiyot darslarida vaziyatga qarab o'qitish strategiyasi, bunda o'quvchilarga tanlash huquqi berilgan holda zamonaviy usullarga tayanilishi ta'kidlanadi.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: Ona tili va adabiyot darslarida vaziyatga qarab o'qitish strategiyasi ta'limiy o'yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol- javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozimligi ochib berilgan.

Usul va o'yinlar: "Asirga olish", "Piramida", "Sovrinli diktant", "Pochtalyon", "Niqob ortida kim bor".

Natija: hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri sifatida dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, vaziyatga qarab o'qitish strategiyasi orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish va o'qitish ekanligini tushuntirish.

Kalit so'zlar: o'qitish strategiyasi, Zamonaviy o'qituvchi, vaziyat, imkoniyat, mukammal, mustaqil fikrlash.


Ta'lim tizimidagi har qanday yuksalish ta'lim tizimining rivojidir. Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, ilg'or g'oyalarning muallifi bo'lsagina ta'lim tizimi rivojlanadi va yuksalish bo'ladi. Ta'lim tizimida til o'rganish muhim masalaga aylanib bormoqda. Tobora yildan yilga O'zbekistonimizda barcha sohalariga aynan til o'rganishga juda kuchli e'tibor qaratilmoqda. Turli xil turda o'qitish usullari yo'lga qo'yilgan bo'lib, masofaviy o'qitish va o'qitish imkoniyatlari

berilgan va amal qilinmoqda. Bu yo'nalishda maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri sifatida dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish, vaziyatga qarab o'qitish strategiyasi orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish va o'qitishdir. Interfaol metodlar shunday metodlarki, u o'quvchi yoshlarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul. Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar strategiyasi tashkil etadi.



Ona tili va adabiyot darslarida vaziyatga qarab o'qitish strategiyasi ta'limiy o'yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol- javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqotirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilish lozim, bu albatta o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalarni to'planib borishiga asos bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar ma'lum bir tayyorgarlik o'tishlari, mustaqil o'qishlari, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishlari taqozo etiladi. Shunga ko'ra, o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar: tasvirlay olish, tushuntira bilish va oldindan ko'ra olish hamda miyaning chap yarim sharini ham rivojlantirib, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

O'quvchilarga tanlash huquqini berish kerak



"Asirga olish usuli". Ushbu usul shartiga ko'ra, o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. 1 guruh so'z aytadi. Raqib guruh esa uning ma'nodoshlarini topishi kerak bo'ladi. Qaysi o'quvchi xato javob bersa, birinchi guruhning asiri bo'ladi, aniqrog'i guruh a'zosiga aylanadi. G'olib 10 daqiqadan so'ng, ularning "asirlari" soniga qarab aniqlanadi.

"Piramida" o'yini. Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida "Piramida" o'yini olib boriladi. Bunda To'rtala guruhga alohida mavzular beriladi, guruh a'zolari berilgan mavzu bo'yicha barcha ma'lumotlarni maxsus kartochkalarga yozishadi va piramida tasvirlangan ko'rgazmaga yopishtirib chiqadilar. Natijalar tekshiriladi noto'g'ri va takrorlangan ma'lumotlar olib tashlanadi va qolgan natijalar hisoblanadi. Eng ko'p ma'lumot yozgan guruhlar taqdirlanadi. Bunda o'quvchilar o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajasi aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda

erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatadi.

"Sovrinli diktant" usuli: O'quvchilar sinf xonasida tinch o'tirib, har bir so'zni diqqat bilan tinglashga, so'zlarning talaffuzi va yozilish qoidalariga e'tibor bilan to'g'ri yozishga intiladi. 3-4 daqiqali sovrinli diktant o'quvchiga o'zgacha mas'uliyat yuklaydi va sovrin uchun 2ta "5" baho olishga intiladi.

"Niqob ortida kim bor" usuli. Bu usul adabiyot darslarida foydalaniladi. Bunda obrazlar tahlili yoki darsning mustahkamlash bosqichini ushbu usul orqali samarali tashkil etish mumkin. S.Ahmad teleminiatyuralar ustasi ham hisoblanadi. Doskada parda tasviri va unga xomush va quvnoq qiyofalar aks etgan niqoblar yopishtirilgan. O'quvchilar navbat bilan chiqib niqob tasvirini tanlaydilar, unda asar qahramoni ismi yozilgan, uning ismini aytmay uning so'z bilan tashqi – ko'rinishi yoki tabiatini tasvirleydilar. O'tirgan o'quvchilar kimligini topadilar. Masalan: Tursunboy, Ikromjon, Jannat xola, Zebi, Nizomjon, To'lanboy, Rayimberdi (Tog'a)...nomlari berilgan.

"Pochtalyon" usuli. Bu usul orqali o'tilgan mavzu va uyga vazifani so'rash mumkin. O'quvchilarga o'tilgan mavzu va uyga vazifaga oid savollar yozilgan bo'ladi. O'qituvchi tomonidan pochtdan xat kelibdi deya konvertga yozilgan savollar ochiladi va savollar o'qib eshittiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasidagi tajribalar shundan dalolat beradiki, ona tili va adabiyot darslarida vaziyatga qarab o'qitish strategiyasi yangi pedagogik texnologiyalar, ularni o'z o'rnida qo'llash hozirgi zamon ta'lim jarayonini sifat bosqichiga olib chiqishda zarur bo'lgan metod deb tan olingandir. Rivojlangan mamlakatlarning tajribalari shuni isbotlaydiki, yangi pedagogik texnologiyalar o'rganuvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqish va zaruratni qondirish bilan birga, zamon talabiga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlab yetishtirish kabi vazifani uddalashda asosiy vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T- Fan, 2005-yil.
2. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi. Adabiyot. Respublika ta'lim markazi. 2020-yil.
3. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi: o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma) Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Toshkent, 2020-yil.